



XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT SHAHRI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 24-oktabr

VII-16-172-14-0-K/25

Toshkent shahri

Toshkent shahridagi mavjud va yangi barpo etiladigan gastronomik va turizm ko‘chalarida mulk egalariга tegishli bino va inshootlarga tutash hududlardan hamda umumiy foydalanishdagi yer uchastkalaridan tijorat maqsadlarida foydalanish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalari hamda Vazirlar Mahkamasining “Tadbirkorlik subyektlariga tutash hududlardan mavsumiy foydalanishni tashkil etishni yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 31-iyuldagi 478-son qaroriga asosan mavjud va yangi barpo etiladigan gastronomik va turizm ko‘chalarida mulk egalariга tegishli bino va inshootlarga tutash hududlardan hamda umumiy foydalanishdagi yer uchastkalaridan tijorat maqsadlarida foydalanishni tashkil etish maqsadida xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-iyuldagi 478-son qarorida mavjud va yangi barpo etiladigan gastronomik va turizm ko‘chalarida mulk egalariга tegishli bino va inshootlarga tutash hududlardan (keyingi o‘rinlarda – tutash hudud) hamda umumiy foydalanishdagi yer uchastkalaridan tijorat maqsadlarida foydalanish tartibixalq deputatlari Toshkent shahri Kengashi qarori bilan tasdiqlanish belgilanganligi;

bunda:

yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun bozor tamoyillari asosida narx belgilash va yillik ijara haqini har oyda teng ulushlarda to‘lab borish talabini nazarda tutish;

hududlarning namunali saqlanishini ta‘minlash maqsadida ijara to‘lovlarining taqsimoti belgilanishi;

gastronomik va turizm ko‘chalarida mavsumiy talablarni hisobga olgan holda obodonlashtirish hamda sanitariya jihatdan tozalash ishlarini (supurish, suv sepish,

chang va qordan tozalash va boshqalar) tashkil etish uchun ekspluatatsiya to'lovlarini belgilash hamda zarur hollarda uni ijara to'lovlariga qo'shgan holda undirish;

gastronomik va turizm ko'chalarida har xil turdagi ko'ngilochar tadbirlarni o'tkazish uchun bir martalik to'lov miqdorini va ularni o'tkazish tartibini belgilash inobatga olinishi belgilanganligi;

b) Toshkent shahar tumanlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga oid qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq Toshkent shahrida gastronomik va turizm ko'chalari tashkil etilishi belgilanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent shahridagi mavjud va yangi barpo etiladigan gastronomik va turizm ko'chalarida mulk egalari tegishli bino va inshootlarga tutash hududlarda hamda umumiy foydalanishdagi hududlarda savdo, xizmat ko'rsatish va umumiy ovqatlanish nuqtalarini joylashtirish bo'yicha tartib **ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

3. Gastronomik va turizm ko'chalarida yil davomida o'tkaziladigan madaniy tadbirlar va ko'ngilochar dasturlarni **har yili dekabr oyi yakuniga qadar keyingi kalendar yil** uchun Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi bilan kelishgan holda Toshkent shahar hokimi tomonidan tasdiqlanishi belgilansin.

4. Gastronomik va turizm ko'chalardagi tutash hududlar va umumiy foydalanish hududida savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalarini joylashtirishning boshlang'ich qiymati hamda mavsumiy tadbirlar tashkil etilishi munosabati bilan mazkur ko'chalarda ko'chma qurilmalarni (bir martalik) joylashtirishning qiymati **Toshkent shahar hokimining qaroriga asosan quyidagilarni inobatga olgan holda belgilanadi:**

hududdan foydalanish (huquqi) uchun ijara to'lovi bo'yicha mustaqil baholovchi tashkilotning hisobotidagi narx;

hududni obodonlashtirish hamda sanitariya jihatdan tozalash xarajatlari;

hududni xavfsizligi ta'minlash va qo'riqlash xarajatlari.

Bunda, mazkur narx **bir kalendar yili uchun amal qiladi.**

5. Gastronomik va turizm ko'chalardagi tutash hududlar va umumiy foydalanishdagi hududida savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalarini joylashtirish hamda mavsumiy tadbirlar tashkil etilishi munosabati bilan mazkur ko'chalarda ko'chma qurilmalarni (bir martalik) joylashtirishdan tushgan tushum "Mirzo Ulug'bek Business City" tadbirkorlik markazini qurish va ekspluatatsiya qilish direksiyasi" DUK (keyingi o'rinlarda – Direksiya)ning maxsus hisob raqamiga o'tkaziladi.

6. Gastronomik va turizm ko'chalardagi hududlardan samarali foydalanishga oid ishlarni tashkil etish, obodonlashtirish va sanitariya jihatdan tozalash hamda xavfsizligini ta'minlashda Direksiya bilan hamkorlikda faoliyat yuritish bo'yicha tuman hokimlariga shaxsiy mas'uliyat yuklansin.

7. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmati (G.Kasimova)ga mazkur qaror rasmiy e'lon qilinishi va www.tashkent.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlash tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiya va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi M.Taxirov va Toshkent shahar hokimining birinchi o'rinbosari B.Xaydarov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



KALANOV RUSTAM
ABDUXAKIMOVICH

Xalq deputatlari Toshkent shahri
Kengashining
2025-yil 24-oktabrdagi
VII-16-172-14-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Toshkent shahridagi mavjud va yangi barpo etiladigan gastronomik va turizm
ko‘chalarida mulk egalariga tegishli bino va inshootlarga tutash hamda umumiy
foydalanishdagi hududlarda savdo, xizmat ko‘rsatish va umumiy ovqatlanish
nuqtalarini joylashtirish
T A R T I B I**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartib Toshkent shahridagi mavjud va yangi barpo etiladigan gastronomik va turizm ko‘chalarida hamda sayilgohlarda (keyingi o‘rinlarda – **turizm ko‘chalarida**) mulk egalariga tegishli bino va inshootlarga tutash hududlardan (keyingi o‘rinlarda – **tutash hudud**) hamda umumiy foydalanishdagi hududlardan (keyingi o‘rinlarda – **umumiy foydalanish hududi**) tijorat maqsadlarida foydalanish tartibotini belgilaydi.

2. Turizm ko‘chalaridagi tutash hududlardan hamda umumiy foydalanish hududidan tijorat maqsadlarida foydalanish bo‘yicha tadbirkorlik subyektlari tomonidan tashabbus ko‘rsatilishi mumkin.

3. Turizm ko‘chalaridagi tutash hududlardan hamda umumiy foydalanish hududidan tijorat maqsadlarida foydalanish tomonlar o‘rtasida tuzilgan shartnomaga asosan amalga oshiriladi.

4. Turizm ko‘chalaridagi tutash hududlardan hamda umumiy foydalanish hududlaridan tijorat maqsadlarida foydalanishni tashkil etish bo‘yicha vakolatli organ “Mirzo Ulug‘bek Business City” tadbirkorlik markazini qurish va ekspluatatsiya qilish direksiyasi” DUK (keyingi o‘rinlarda – Direksiya).

Bunda, turizm ko‘chalardagi:

tutash hududlar bo‘yicha Toshkent shahar hokimligiga doimiy foydalanish huquqi asosida kadastr hujjati belgilangan tartibda rasmiylashtirib boriladi hamda mazkur hududlarni ijaraga berish Toshkent shahar hokimligi bilan tuzilgan “Topshiriq shahrtnomasi”ga muvofiq amalga oshiriladi;

umumiy foydalanishdagi yer uchastkalari tadbirkorlik subyektlariga joylashish sxemasi asosida ijaraga beriladi hamda kadastr hujjati rasmiylashtirilishi talab etilmaydi.

**II. Turizm ko‘chalaridagi tutash hududlarni hamda umumiy foydalanish
hududlarini aniqlash hamda “Dizayn-kod” ishlab chiqqan holda ko‘chalarni umumiy
(yagona) ko‘rinishga keltirish**

5. Turizm ko‘chalariga tutash hududlar Direksiya tomonidan xatlov o‘tkazilgan holda aniqlanadi.

6. Direksiya tomonidan xatlov natijalari bo‘yicha hududning joylashtirish sxemasi (keyingi o‘rinlarda – Sxema) tuziladi.

7. Joylashtirish Sxemasi Direksiya tomonidan tuman hokimliklari hamda Toshkent shahar hokimligi bilan kelishilishi ta'minlanadi.

8. Direksiya tomonidan turizm ko'chalaridagi tutash hududlar va umumiy foydalanish hududlarining aniq chegarasi belgilanadi, zarur hollarda tuman kadastr bo'limi hamda tuman qurilish bo'limi mutaxassislari jalb qilinadi.

Bunda, tuman qurilish bo'limi – hududlarni chegarasini belgilaydi, mavjud muhofaza hududlarni o'rganadi va unga nisbatan mavjud cheklavlarni aniqlaydi.

9. Umumiy foydalanish hududida savdo, xizmat ko'rsatish va umumiy ovqatlanish nuqtalari (keyingi o'rinlarda – **tadbirkorlik nuqtalari**)ni joylashtirish maqsadida mazkur hududlar alohida lotlarga bo'linadi.

10. Tijorat faoliyati obyektlarini ko'cha va binolarga mos arxitektura qiyofasida hamda aholi uchun qulay va xavfsiz qilib loyihalashtirishga doir yagona talab va tavsiyalar ("Dizayn-kod") Direksiya tomonidan ishlab chiqiladi.

11. Tutash hududlar va umumiy foydalanish hududlarida tadbirkorlik nuqtalarini joylashtirish bo'yicha shartnomalarda "Dizayn-kod"ga mos faoliyat turi tashkil qilinishi nazarda tutiladi.

III. Turizm ko'chalaridagi tutash hududlar hamda umumiy foydalanish hududlarida tadbirkorlik nuqtalarini joylashtirish uchun ularning boshlang'ich qiymatini aniqlash

12. Turizm ko'chalaridagi tutash hududlar hamda umumiy foydalanish hududlarida tadbirkorlik nuqtalarini joylashtirishning qiymati quyidagilardan iborat:

- a) hududdan foydalanish (huquqi) uchun ijara to'lovi;
- b) obodonlashtirish hamda sanitariya jihatidan tozalash ishlarini (*supurish, suv sepish, chang va qordan tozalash va boshqalar*) tashkil etish uchun ekspluatatsiya to'lovlari;
- d) hududning xavfsizligini ta'minlash va qo'riqlash xarajatlari.

13. Turizm ko'chalaridagi tutash hududlar va umumiy foydalanish hududlarida tadbirkorlik nuqtalarini joylashtirishning boshlang'ich qiymati hamda mavsumiy tadbirlar tashkil etilishi munosabati bilan mazkur ko'chalarda ko'chma qurilmalarni (bir martalik) joylashtirishning qiymatini aniqlash uchun mustaqil baholovchi tashkilot jalb qilinadi.

14. Mustaqil baholovchi tashkilotlarni jalb qilish "Toshkent Invest kompaniyasi" AJ tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi hamda ular bilan xizmat ko'rsatish shartnomasi tuziladi.

Bunda, mustaqil baholovchini jalb qilish bilan bog'liq xarajatlar Toshkent shahrini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qoplanadi.

15. Turizm ko'chalaridagi tutash hududlar va umumiy foydalanish hududlarida tadbirkorlik nuqtalarini joylashtirishning boshlang'ich qiymati hamda mavsumiy tadbirlar tashkil etilishi munosabati bilan mazkur ko'chalarda ko'chma qurilmalarni (bir martalik) joylashtirishning qiymati **Toshkent shahar hokimining qaroriga asosan quyidagilarni inobatga olgan holda belgilanadi:**

- hududdan foydalanish (huquqi) uchun ijara to'lovi bo'yicha mustaqil baholovchi tashkilotning hisobotidagi narx;
- hududni obodonlashtirish hamda sanitariya jihatidan tozalash xarajatlari;
- hududning xavfsizligini ta'minlash va qo'riqlash xarajatlari.

Bunda, mazkur narx bir kalendar yili uchun amal qiladi.

IV. Turizm ko'chalaridagi tutash hududlardan hamda umumiy foydalanishdagi yer uchastkalarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tashabbuskor (g'olib)ni aniqlash

16. Tutash hududda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tashabbuskor O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-iyuldagi 478-son qarorida qayd etilgan tartibda aniqlanadi.

17. Umumiy foydalanish hududida tadbirkorlik nuqtalarini joylashtiruvchi hamda mavsumiy tadbirlar tashkil etilishi munosabati bilan mazkur ko'chalarda ko'chma qurilmalarni (bir martalik) joylashtiruvchi tashabbuskor **eng yaxshi takliflarni tanlab olish yo'li bilan** aniqlanadi.

Bunda, takliflarni taqdim etish bo'yicha e'lon berish va taqdim etilgan takliflardan eng maqbulini tanlab olish Direksiya tomonidan amalga oshiriladi.

18. Turizm ko'chalarida mavsumiy tadbirlar tashkil etilishi munosabati bilan mazkur ko'chalarda ko'chma qurilmalarni (bir martalik) joylashtirish bo'yicha tashabbuskorlarni aniqlash uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- Direksiya tuman hokimliklari, tuman soliq boshqarmasi va tuman kadastr bo'limi bilan birgalikda ko'chma qurilmalar joylashtiriladigan hududni aniqlaydi;
- aniqlangan hudud va tashkil etilishi belgilangan faoliyat turi ko'rsatilgan holda tashabbuskorni aniqlash bo'yicha e'lon beriladi.

V. Tashabbuskor (g'olib) bilan shartnoma tuzish hamda shartnoma shartlari

19. Tutash hudud bo'yicha shartnoma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-iyuldagi 478-son qarorida qayd etilgan tartibga muvofiq tadbirkorlik subyekti tomonidan ariza kelib tushganidan so'ng tuziladi.

20. Umumiy foydalanish hududlarida tadbirkorlik nuqtalarini joylashtiruvchi hamda mavsumiy tadbirlar tashkil etilishi munosabati bilan mazkur ko'chalarda ko'chma qurilmalarni joylashtiruvchi tashabbuskor bilan shartnoma Direksiya tomonidan o'tkazilgan tanlov natijalariga ko'ra tuziladi.

Bunda:

tutash hudud bo'yicha tuzilgan shartnomaga asosan ijaraga oluvchi bir vaqtning o'zida umumiy foydalanishdagi hududni ham ijaraga olishi hamda mazkur hududni subijara asosida boshqa ijarachiga berishi mumkin;

subijaraga berilgan umumiy foydalanish hududida tashkil etiladigan faoliyat turi ko'cha bo'yicha ishlab chiqilgan "Dizayn-kod"ga mos bo'lishi shart.

21. Mazkur tartibning 19- va 20- bandlarida qayd etilgan shartnomalar bir yil muddatda tuziladi hamda quyidagilarni nazarda tutadi:

- hududdan foydalanish maqsadi;
- hududdan foydalanish bo'yicha qo'yilgan talablar;
- to'lovlar qiymati va to'lash muddati;
- tomonlarning huquq va majburiyatlari;
- shartnomaga o'zgartirish kiritish, shuningdek, bekor qilish tartiblari va boshqalar.

Bunda, tadbirkorlik subyektlari (ijaraga oluvchilar) tomonidan ijara to'lovlari Yagona billing tizimi orqali amalga oshiriladi.

22. Mazkur tartibning 19- va 20- bandlarida qayd etilgan shartnoma muddatini uzaytirish amaldagi qonunchilikka muvofiq hamda shartnoma tomonlarining o'zaro kelishuviga asosan amalga oshirilishi mumkin.

23. Turizm ko'chalaridagi tutash hududlar hamda umumiy foydalanish hududlarida joylashtirilgan tadbirkorlik nuqtalari bo'yicha kommunal xizmatlar uchun to'lovlar tadbirkorlik subyektlari tomonidan Direksiya bilan tuzilgan shartnomaga yoki qo'shimcha kelishuvga asosan Direksiyaga to'lab beriladi.

Bunda, Direksiya tomonidan har bir tadbirkorlik nuqtalari uchun alohida hisoblagich o'rnatiladi va hisoblagichni o'rnatish xarajatlari tadbirkorlik subyektlari tomonidan qoplanadi.

24. Turizm ko'chalarida mavsumiy tadbirlar tashkil etilishi munosabati bilan mazkur ko'chalarda ko'chma qurilmalarni (bir martalik) joylashtirish bo'yicha shartnomaning muddati mavsumiy tadbirlar yakuniga qadar etib belgilanadi.

VI. Turizm ko'chalarida event (festivallar) va mavsumiy tadbirlarni o'tkazish

25. Turizm ko'chalarida event (festivallar) va mavsumiy tadbirlar Toshkent shahar hokimligi tomonidan tasdiqlangan reja-jadval asosida yoki tadbirkorlik subyektlarining tashabbuslari asosida amalga oshirilishi mumkin.

26. Turizm ko'chalarida event (festivallar) va mavsumiy tadbirlar tadbirkorlik subyektlari tomonidan yoki Direksiya tomonidan tashkillashtirilgan holda o'tkaziladi.

27. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan tashkillashtirilgan event (festivallar) va mavsumiy tadbirlar o'tkazilganda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

a) tadbir o'tkazish uchun turizm ko'chalaridan hudud ajratish bo'yicha Direksiya bilan bir martalik ijara shartnomasi tuziladi;

bunda, tadbirni o'tkazish muddati (*shu jumladan tadbirni boshlash va yakunlash soatlari*) va talab etiladigan maydon (shartnomada) aniq ko'rsatiladi;

b) ijara shartnomasida ko'rsatilgan hududni o'tkazilayotgan tadbirga hamda tadbirkorlik subyekti faoliyat turiga mos qiyofaga keltirish uchun zarur inventarlar (*stol-stul, sun'iy gullar, daraxtlar, chiroqlar, sahna qurish moslamalari, yengil qurilma shaklidagi savdo rastalar, soyabonlar va boshqa zaruriy jihozlar*) tadbir o'tkazuvchi tadbirkor tomonidan olib kelinadi;

d) tadbir o'tkazish davrida mazkur tadbir o'tkazilayotgan hududga zarar yetkazilmasligiga tadbir o'tkazuvchi tadbirkor shartnomaga muvofiq javobgar bo'ladi.

28. Turizm ko'chalarida event (festivallar) va mavsumiy tadbirlar haq to'lash evaziga Direksiya tomonidan o'tkazilganda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

a) tadbir o'tkazish bo'yicha Direksiya va tadbirkorlik subyekti o'rtasida xizmat ko'rsatish shartnomasi tuziladi va shartnomada quyidagilar aniq ko'rsatiladi:

- tadbirni o'tkazish muddati (*shu jumladan tadbirni boshlash va yakunlash vaqtlari*);
- talab etiladigan mablag';
- tashkil etiladigan ko'ngilochar dasturlar;
- tadbirni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad;

- tomonlarning boshqa majburiyat va huquqlari.

b) tadbirkorlik subyekti tomonidan tadbirni o'tkazish konsepsiyasi (ssenariyi) Direksiya taqdim etiladi;

d) Direksiya taqdim etilgan konsepsiya (ssenariy) asosida tadbirni tashkil etadi;

e) Direksiya tadbirkorlik subyekti tomonidan taqdim etilgan konsepsiya (ssenariy) asosida tadbirni tashkillashtirish uchun zaruriy jihozlarni sotib yoki ijaraga oladi, yoxud tadbirkorlik subyekti tomonidan taqdim etilgan jihozlardan foydalanadi;

f) tadbirni o'tkazish uchun zaruriy jihozlarni sotib olish yoki ijaraga olish uchun talab etiladigan mablag' Direksiya tomonidan taqdim etilgan to'lov topshiriqnomasiga asosan tadbirkorlik subyekti tomonidan Direksiyaning maxsus hisobraqamiga to'lab beriladi (iqtisod qilingan mablag'lar xizmat ko'rsatish shartnomasi bo'yicha to'lovlar sifatida inobatga olinadi);

g) tomonlar o'rtasida tuzilgan xizmat ko'rsatish shartnomasiga muvofiq xizmat ko'rsatilganligi uchun to'lanadigan mablag' tadbirkorlik subyekti tomonidan tadbir yakunlanganidan so'ng 5 (besh) kun muddatda to'lab beriladi.

VII. Yakunlovchi qoidalar

29. Ushbu Tartib talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradi.

30. Toshkent shahridagi mavjud va yangi barpo etiladigan gastronomik va turizm ko'chalarining ro'yxati belgilangan tartibda Toshkent shahar hokimining qarori bilan tasdiqlanadi.

31. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlariga asosan turizm ko'chalari faoliyati bo'yicha alohida tartib belgilangan taqdirda mazkur ko'chalardan samarali foydalanish ushbu belgilangan hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.